

**ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI TIZIMIDA TURIZM XAVFSIZLIGINI
TA'MINLASH, YUZAGA KELAYOTGAN MUAMMOLAR, ULARNI
BARTARAF ETISH CHORALARI**

*Mavliddinov Ramzidin Raxmatulloyevich
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Magistratura tinglovchisi, kapitan*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ichki ishlar vazirligi tizimida turizm xavfsizligini ta'minlash borasida so'z boradi. Shuningdek, turizm xavfsizligini ta'minlashda yuzaga kelayotgan muammolar hamda ularni bartaraf etish choralar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: turizm, turizm xavfsizlik, departament, "Turizm to'g'risida"gi qonun, infratuzilma.

Аннотация: В данной статье говорится об обеспечении туристической безопасности в системе МВД. Также будут обсуждены проблемы, возникающие в обеспечении безопасности туризма и меры по их устранению.

Ключевые слова: туризм, туристическая безопасность, ведомство, Закон «О туризме», инфраструктура.

Annotation: This article talks about ensuring tourist security in the Ministry of Internal Affairs system. Problems arising in ensuring tourism safety and measures to eliminate them will also be discussed.

Keywords: tourism, tourist safety, department, Law "On Tourism", infrastructure.

Turizm ko'pgina davlatlarda aholining ma'lum bir qismini ish bilan ta'minlaydigan, shu bilan birga iqtisodiyotga mablag' keltiradigan tarmoq hisoblanadi. Turizm nafaqat yuqorida ko'rsatilgan fikrlar, balki tarixiy va madaniy merosni rivojlantirishga, xalqaro maydonga chiqishga imkon yaratadi. Turizm bundan tashqari, yaxshi ekologik vaziyatni saqlashga, atrof-muhitni sog'lomlashtirishga, o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash va xalqning ma'naviy qadriyatlari tiklanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda turizm salohiyatini yuksaltirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi, shuningdek, turistlar uchun qulay sharoitlar yaratish hamda O'zbekistonning tashrif uchun xavfsiz mamlakat sifatidagi imijini shakllantirishga qaratilgan tizimli islohotlar olib borilmoqda. Respublikaning turizm salohiyatini yuksaltirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi, turistlar uchun qulay sharoitlar yaratish hamda O'zbekistonning tashrif uchun xavfsiz mamlakat sifatidagi obro'sini shakllantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ko'rildi.

Bu borada jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish natijasida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tuzilmasida Transportda xavfsizlikni ta'minlash bosh boshqarmasi va Xavfsiz turizmni ta'minlashni muvofiqlashtirish boshqarmasini o'z ichiga olgan **Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti** tashkil etildi. Demak, bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, turizm xavfsizligi bo'yicha mas'ul sdavlat organi sifatida Ichki ishlar vazirligi ko'rildi.

Xavfsiz turizmni ta'minlash bo'yicha yaratilgan tizim turizm joylarida hamda turistlar tomonidan respublika bo'ylab harakatlanish uchun faol foydalanilayotgan temir yo'l va havo-transport infratuzilmasi obyektlarida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish chora-tadbirlarini o'zida birlashtirdi.

Fuqarolar, shu jumladan, ichki va tashqi turistlar xavfsizligi masalalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2020 yil 21 yanvar), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Transport va turizm obyektlarida jamoat xavfsizligini ta'minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta'minlash bo'linmalari tomonidan shartnoma asosida pulli xizmatlar ko'rsatish tartibini belgilash to'g'risida"gi qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rigan.

Shuni yana alohida ta'kidlab o'tish kerakki, turizm xavfsizligini ta'minlashda yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish choralar ham muhim masala bo'lib qolmoqda. Turizmda xavfsizlik masalalari, shuningdek, bir qator xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqotlarida ham ko'rib chiqilgan. Rossiyalik tadqiqotchilardan A.Bobkova turizmda xavfsizlik muammolarini hal qilish muhimligini ta'kidlaydi, chunki ular qabul qiluvchi mamlakat uchun ham, sayyoohlар uchun ham muhim iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Uning ta'kidlashicha, turizm ko'pincha jinoyatchilar va terrorchilar tomonidan yumshoq nishon sifatida qaraladi va sayyoohlik yo'nalishlari jinoyatchilik, terrorizm, tabiiy ofatlar va sog'liq uchun favqulodda vaziyatlar kabi bir qator xavf-xatarlarga qarshi himoyasiz.

Bobkovaning ta'kidlashicha, samarali xavfsizlik choralar hukumatlar, turizm sohasi birlashmalari, huquqni muhofaza qilish idoralari va mahalliy jamoalar kabi turli

manfaatdor tomonlarni jalgan qilgan holda muvofiqlashtirilgan va kompleks yondashuvni talab qiladi. Shuningdek, u sayyoohlar orasida potensial xavflar to‘g‘risida xabardorlikni oshirish va ularga xavfsiz bo‘lish bo‘yicha ma’lumot va ko‘rsatmalar berish muhimligini ta’kidlaydi. Umuman olganda, Bobkovaning tadqiqotlari turizm sanoatining murakkab va dinamik tabiatini va sayyoohlar duch keladigan turli xil xavf va tahdidlarni hisobga olgan holda turizmda xavfsizlikka proaktiv va yaxlit yondashuv zarurligini ta’kidlaydi.

Turizmda xavf-xatarning umumiyligi darajasini quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Biologik xavf:

- a) sanitariya (chivin, malyariya pashshasi, tarakanlar, zamburug‘, mog‘or);
- b) tibbiy-epidemiologik xavf (sariq lixoradka, malyariya, dizenteriya, gripp, COVID).

2. Ijtimoiy xavf:

- a) kriminal vaziyat (o‘g‘rilik, firibgarlik);
- b) madaniy antoganizm (islom an‘analari, xulq-atvorda konservativizm);
- v) ksenofobiya, chet elliklarni hush ko‘rmaslik.

3. Siyosiy xavf:

- a) tartibsizliklar, namoyishlar, siyosiy konfliktlar (fashistik yurishlar, millatlararo to‘qnashuvlar);
- b) politsiya, chegara nazorati, kuch ishlatar tizimlarning ta’qibi (hujjatlarni tekshirish, registratsiya bo‘lmasa, pul talab qilish);
- v) bojxona to‘sig‘i.

4. Iqtisodiy xavf:

- a) valyuta siyosati (kursdagi farq);
- b) tovar va oziq-ovqat mahsulotlari (go‘sht va sut mahsulotlari muammosi);
- v) transport va mehmonxona narxlari darajasi;
- g) infratuzilma (aloqa, avtoprokat, ovqatlanish, do‘kon);
- d) turistlardan soliq.

5. Infratuzilma xavfi:

- a) tog‘larda qutqaruv xizmatining mavjud emasligi;
- b) tezkor aloqaning mavjud emasligi.

Turizmda xavfsizlik masalasiga, shuningdek, yana quyidagilar kiradi:

- turistlarni marshrut kategoriyasiga muvofiq tayyorlash;
- turizm bo‘yicha gidlar, instruktorlar, marshrutda turistlarni kuzatuvchilarning yuqori malakaga egaligi;
- turistlar harakatlanadigan xavfsiz trassalarning talab darajasida jihozlanishi.

Xavfsizlik keng tushuncha bo‘lib, u bir necha yo‘nalishlarda amalga oshiriladi. Oddiygina holat. O‘zbekistonlik sayyooh o‘zi bilan 220 volt kuchlanish va 50 Gs chastotali elektropriborni olib bordi deyaylik (elektrobritva, fen, uyali telefon). Ammo

bu standart boshqa mamlakatlar amaliyotiga to‘g‘ri kelmaydi. Masalan, bu standart Avstraliyada –240/250,

Braziliyada – 110/120, Buyuk Britaniyada – 240, Dominikan Respublikasida – 110, Yamaykada – 110, Ispaniyada – 50, 100 va 200, Kubada – 110, Kiprda – 240, JARda – 220/250, Yangi Zelandiyada – 230 Vt [8]. Ko‘pincha turist bunday farqqa e’tibor bermasdan, o‘z elektropriborlaridan foydalanmoqchi bo‘lib, o‘zining hayoti va mehmonxona mulkini xavf ostiga qo‘yishi mumkin.

Xo‘sh, turizm xavfsizligida yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish uchun qanday choralar ko‘rish kerak? Buning uchun avvalo:

Zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish va sohani raqamlashtirish. Butunjahon internet tarmog‘idagi yirik interfaol xaritalar va ilovalarda respublikadagi turizm obyektlari joylashuvi (lokatsiyasi), ularning to‘g‘ri yozilgan nomlari (o‘zbek, rus va ingliz tillarida) va ular to‘g‘risidagi qisqacha axborotlarni joylashtirish. Bundan tashqari, favqulotda holatlarda xavfsizlik xodimlarini yordamga chaqririshning eng oson va tezkor yo‘llarini shlab chiqish;

Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada yaxshilash. Turizm sohasidagi vakolatli organlar bilan turizm sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish masalalarida hamkorlik o‘rnatish. O‘zbekistonda turizm sohasida rivojlanishning joriy holati, mavjud imkoniyatlarni o‘rganish asosida yangi va innovatsion takliflarni ishlab chiqish uchun respublikadagi oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va xorij tajribasi asosida xavfsiz turizm yo‘nalishida keng ko‘lamli islohot olib boorish;

Turizm infratuzilmasini rivojlantirish. Turizm namoyishi obyektlari, bozorlar, aeroport, vokzal va avtoshohbekatlarda sanitariya-gigiyena shoxobchalarining mavjudligi, umumiy foydalanish joylarining tozaligi, sanitariya va shaharsozlik normalari hamda qoidalari talablariga muvofiqligi yuzasidan tanqidiy o‘rganishlarni davom ettirish orqali turistlar tashrif buyuradigan obyektlarning sanitariya-gigiyena holatini yaxshilash.

Demak, sayohat davomida turistning xavfsizligi turistik davlat uchun eng asosiy vazifalardan biri bo‘lishi kerak. Turizmning rivoji bilan sayyoohlarning xavfsizligini ta’minlash borgan sari muhim va zarurat masala bo‘lib qolmoqda. Hozirgi kunda turizm sohasida sayyoohlarni jo‘natuvchi va qabul qilib oluvchi har bir mamlakat uchun sayyoohlarning dam olish paytlarida, transport harakati yo‘nalishlarida ularning xavfsizligini ta’minlash chora tadbirlari har bir mamlakat uchun oddiy, odatdagagi hayotiy holda bo‘lmog‘i zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 18.07.2019 yildagi O‘RQ-549-soni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.08.2022 yildagi O‘zbekiston Respublikasi turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida 475-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Transport va turizm obyektlarida jamoat xavfsizligini ta’minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ichki ishlar organlarining xavfsiz turizmni ta’minlash bo‘linmalari tomonidan shartnoma asosida pulli xizmatlar ko‘rsatish tartibini belgilash to‘g‘risida”gi qarori.
7. Mirzayev M.A., Aliyeva M.T. Turizm asoslari. O‘quv qo‘llanma.-T.: O‘zbekiston faylafuslar jamiyati, 2011.297 b.
8. Tuxliyev I.S., Qudratov G‘.H., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish.
9. Бобкова А.Г. Безопасность туризма. Учебник. Под общ. ред. д-ра юрид. наук. Е.Л.Писаревского. – М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. – 272 с.

ELEKTRON MANBALAR:

1. <https://lex.uz>